

**MAKTAB YOSHIDAGI O‘ZBEKZABON BOLALAR OG‘ZAKI NUTQINI
MAIN METODOLOGIYASI ASOSIDA O‘RGANISH****STUDY OF SCHOOL-AGED UZBEK-SPEAKING CHILDREN'S ORAL
SPEECH BASED ON THE MAIN METHODOLOGY**

*Hamidova Gulrux Axmat qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti*

Annotation. This article presents the experience of studying the oral narrative speech of school-aged (grades 1–5) Uzbek-speaking children based on the internationally standardized MAIN (Multilingual Assessment Instrument for Narratives) methodology. In the study, the speech of 11 participants was collected using the "Cat Story" visual stimulus and analyzed according to psycholinguistic indicators (MLU, TTR, syntactic complexity, speech rate). The article focuses on the methodological aspects of applying the MAIN instrument to the Uzbek language.

Keywords: psycholinguistics, oral speech, MAIN, narrative analysis, MLU, child language, transcription.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab yoshidagi (1-5-sinf) o‘zbek tilida so‘zlashuvchi bolalar og‘zaki narrativ nutqini xalqaro standartlashtirilgan MAIN (Multilingual Assessment Instrument for Narratives) metodologiyasi asosida o‘rganish tajribasi bayon etiladi. Tadqiqotda 11 nafar ishtirokchi nutqi “Cat Story” vizual stimuli yordamida yig‘ilib, psixolingvistik ko‘rsatkichlar (MLU, TTR, sintaktik murakkablik, nutq tezligi) asosida tahlil qilindi. Maqola MAIN vositasini o‘zbek tiliga tatbiq etishning metodologik jihatlariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, og‘zaki nutq, MAIN, narrativ tahlil, MLU, bolalar nutqi, transkripsiya.

Kirish. Bolalar og‘zaki nutqining rivojlanishini o‘rganish zamonaviy psixolingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Og‘zaki nutq insonning birlamchi til ko‘nikmasi bo‘lib, uning rivojlanishi tilning boshqa shakllari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq o‘zbek tilshunosligida bolalar og‘zaki nutqi asosan an‘anaviy tilshunoslik yoki sotsiolingvistika doirasida o‘rganilgan bo‘lib, aniq psixolingvistik ko‘rsatkichlar asosida miqdoriy tahlil qilinmagan.

Xalqaro psixolingvistikada bolalar narrativ nutqini baholashning eng keng tarqalgan vositalaridan biri bu MAIN (Multilingual Assessment Instrument for Narratives) hisoblanadi. Ushbu vosita N.Gagarina va hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, 3 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarning narrativ qobiliyatlarini standartlashtirilgan vizual stimullar yordamida baholashga mo‘ljallangan. MAIN

hozirgacha 15 dan ortiq tilga moslashtirilgan, biroq o'zbek tiliga tatbiq etilmagan edi. Ushbu maqolada MAIN metodologiyasini o'zbek tilidagi bolalar nutqini o'rganishda qo'llash tajribasi bayon etiladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot intervyu metodiga asoslangan bo'lib, ma'lumot yig'ish uchun MAIN protokolining "Cat Story" ketma-ket rasmlar to'plami (6 ta rasm) ishlatildi. Tadqiqotda 1-5-sinf o'quvchilaridan iborat 11 nafar ishtirokchi jalb etildi (har bir sinf guruhidan 2-3 nafar). Har bir ishtirokchidan rasmlarni ketma-ket ko'rib chiqib, ular asosida og'zaki hikoya tuzish so'raldi. Nutq audio ko'rinishida qayd etilib, so'ngra yozma transkripsiya holatiga keltirildi.

Transkripsiya CHAT (Codes for the Human Analysis of Transcripts) tizimi asosida ishlab chiqilgan, tadqiqot maqsadiga moslashtirilgan soddalashtirilgan belgilar tizimi yordamida amalga oshirildi. Belgilar tizimi gap chegarasi, pauza, takrorlash, o'zini-o'zi tuzatish, to'ldiruvchi tovush kabi nutq elementlarini qamrab oldi. Transkripsiyada ishtirokchilarning haqiqiy nutqi, jumladan sheva xususiyatlari va talaffuz farqlari o'zgartirilmagan holda saqlandi.

Tahlil uchun quyidagi psixolingvistik ko'rsatkichlar hisoblandi: o'rtacha gap uzunligi (MLU - so'z darajasida), leksik xilma-xillik darajasi (TTR), sintaktik murakkablik (bog'lovchili gaplar ulushi), nutq tezligi (so'z/daqqa), hamda ravonlik ko'rsatkichlari (pauza, to'ldiruvchi tovush, o'zini-o'zi tuzatish va takrorlash chastotalari). Bundan tashqari, narrativ struktura (macrostructure) "story grammar" modeli asosida olti element bo'yicha baholandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari MLU ko'rsatkichining yosh bilan to'g'ri chiziqli o'smasligini, balki U-shaklli tendensiyada rivojlanishini ko'rsatdi: 3-sinfda vaqtinchalik pasayish (4.58) kuzatildi. Bu hodisa psixolingvistika adabiyotidagi U-shaklli rivojlanish nazariyasiga mos keladi, ya'ni nazariyaga ko'ra yangi grammatik tuzilmalar o'zlashtirilayotgan davrda bolalar vaqtincha soddaroq gaplardan foydalanadi. Xuddi shu tendensiya nutq tezligi ko'rsatkichida ham kuzatildi. Muhim topilma sifatida mikrostruktura (MLU, TTR, sintaktik murakkablik) va makrostruktura (narrativ struktura balli) darajalarining turlicha rivojlanishini qayd etish mumkin. Mikrostruktura U-shaklli rivojlansa, makrostruktura yosh bilan izchil va to'g'ri chiziqli o'sib bordi (1-sinfda 4.50 dan 5-sinfda 5.50 ballgacha). Bu narrativ tashkillashtirish qobiliyati til mikrostrukturasi bilan nisbatan mustaqil ravishda, kognitiv yetilish bilan rivojlanishini ko'rsatadi.

Tadqiqot MAIN vositasini o'zbek tiliga tatbiq etishning samarali ekanligini ko'rsatdi. MAIN dastlab ko'p tilli bolalar uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning standartlashtirilgan vizual stimullari bir tilli o'zbek tilidagi bolalar bilan ham muvaffaqiyatli qo'llanildi. Turk tili kabi turkiy tillarda MAIN va o'xshash metodlarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi o'zbek tili uchun ham bu yondashuvning asosli ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot o'zbek tilidagi maktab yoshidagi bolalar og'zaki narrativ nutqini MAIN metodologiyasi asosida o'rganishning dastlabki tajribasi hisoblanadi. Natijalar o'zbek tilidagi bolalar nutqi rivojlanishining bazaviy ko'rsatkichlarini shakllantiradi va MAIN vositasining o'zbek tiliga tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatadi. Tadqiqot kelajakda kengaytirilgan namuna bilan davom ettirilishi, hamda natijalarni boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy o'rganish istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gagarina, N., Klop, D., Kunnari, S., et al. (2019). MAIN: Multilingual Assessment Instrument for Narratives – Revised. *ZAS Papers in Linguistics*, 63.
2. Marcus, G. F., Pinker, S., et al. (1992). Overregularization in language acquisition. *Monographs of SRCD*, 57(4).
3. Berman, R. A., & Slobin, D. I. (1994). *Relating Events in Narrative*. Lawrence Erlbaum.
4. Liles, B. Z. (1993). Narrative discourse in children. *Journal of Speech and Hearing Research*, 36(5).
5. Alpanova Sh. Nutqiy faoliyat jarayonidagi ruhiy holatlarning o'zbek tilining turli sath birliklari vositasida aks etishi. PhD diss. – Farg'ona, 2018.
6. Qurbonova M. O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. Filol. fan. nomzodi diss. – Toshkent, 2014.
7. Sharapova G. O'zbek bolalar nutqining sotsiolingvistik xususiyatlari: bitiruv malakaviy ishi. – Toshkent, 2016.